



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI




MAVZU: ILMIY TADQIQOT ISHI DAVOMIDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISHDA SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMALAR TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI

Muallif: S.G'. Xasanova
Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Toshkent-2026 >

Nima uchun ayrim dissertatsiyalar va ilmiy tadqiqotlarning **tajriba-sinov** natijalari ekspertlar tomonidan ishonchsiz deb baholanadi?



TAJRIBA-SINOVNING ASOSIY VAZIFALARI



**Pedagogik tadqiqotlarda
tajriba-sinov ishlari nazariy
modelning amaliyotdagi
samaradorligini tekshirishga
xizmat qiladi.**

Mavjud
holatni
aniqlash

Muammoni
diagnostika
qilish

Pedagogik
ta'sirni
amalga
oshirish

Natijalarni
baholash

Gipotezani
tasdiqlash
yoki rad
etish



Tajriba-sinov ishlari nazariya va amaliyot o'rtasidagi
ko'prik vazifasini bajaradi.

NIMA UCHUN SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA MUHIM?

Pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ta'lim boshqaruvi sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarning katta qismi inson faoliyati bilan bog'liq.

Insonning:

- fikri,
- qadriyatlari,
- motivatsiyasi,
- munosabati,
- ehtiyojlari

bevosita kuzatish orqali to'liq aniqlanmaydi.



Shu sababli tadqiqotchi respondent bilan ilmiy muloqotga kirishadi. Ilmiy muloqotning standartlashtirilgan shakli sotsiologik so'rovnoma hisoblanadi.

SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA - ILMIY O'LCHOV VOSITASI




So'rovnoma – ilmiy konstruktsiyani o'lchash instrumentidir.

“Tahliliy fikrlash” yoki “Akademik motivatsiya” ko'z bilan ko'rinmaydi. Uni faqat indikatorlar orqali o'lchash mumkin.



Demak, savollar respondentning shaxsiy fikrini emas, balki ilmiy konstruktsiyani aks ettirishi kerak.

SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMANI ISHLAB CHIQUISHNING METODOLOGIK MODELI



Ushbu model tadqiqotning ilmiy validligini, ishonchliligini va obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

RESPONDENTLARNI TANLASH NIMA UCHUN MUHIM?



Sotsiologik tadqiqotlarda tanlanmaning ilmiy qiymati faqat respondentlar soni bilan emas, balki **uning reprezentativligi** bilan belgilanadi. Reprezentativ tanlanma bosh to'plamning asosiy xususiyatlarini ishonchli aks ettiradi va tadqiqot natijalarini umumlashtirish imkonini beradi.

Bosh to'plam —
5000 nafar talaba



Tanlanma — ilmiy
asosda tanlangan
respondentlar

Tanlanma quyidagi belgilar bo'yicha bosh to'plamni aks ettirishi zarur:

- Yosh
- Jins
- Kurs
- Ta'lim yo'nalishi
- Hudud
- Boshqa muhim tavsiflar



VALIDLIK VA ISHONCHLILIK

Validlik – instrument o'lchanishi lozim bo'lgan hodisa yoki konstruktsiyani qanchalik to'g'ri o'lchashini ifodalaydi.

Savol: Biz aynan kerakli narsani o'lchayapmizmi?

Ishonchlilik – instrument takror qo'llanilganda natijalarning barqaror va izchil bo'lish darajasini ifodalaydi.

Savol: Natijalar takrorlanganda o'xshash bo'ladimi?

Ichki izchillik ko'rsatkichi:

$\alpha \geq 0.90$ juda yuqori

0.80–0.89 yaxshi

0.70–0.79 qoniqarli

PILOT TADQIQOTNING AHAMIYATI

Pilot tadqiqot asosiy sotsiologik so'rovdan oldin tadqiqot instrumentining ilmiy sifatini baholash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi dastlabki sinov bosqichidir.



Natija

Pilot tadqiqot so'rovnomadagi metodologik kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish orqali asosiy tadqiqotning ishonchliligi hamda ilmiy asoslanganligini oshiradi.

Baholanadi



Pilot tadqiqot orqali quyidagilar baholanadi:

- ✓ savollarning aniqligi va tushunarliqligi;
- ✓ savollarning mantiqiy ketma-ketligi;
- ✓ javob variantlarining mosligi;
- ✓ so'rovnoma o'tkazish uchun zarur vaqt;
- ✓ respondentlarning savollarni qabul qilishi va talqin qilishi;
- ✓ dastlabki validlik va ichki izchillik.



ILMIY ETIKA


Sotsiologik tadqiqotlarda respondent **tadqiqot ishtirokchisi** sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli tadqiqot jarayonida uning huquqlari, shaxsiy daxlsizligi va manfaatlarini himoya qilish xalqaro ilmiy-etik tamoyillarga muvofiq ta'minlanishi zarur.

Asosiy etik tamoyillar:

- ✓ Ixtiyoriy ishtirok
- ✓ Ongli rozilik
- ✓ Anonimlik
- ✓ Maxfiylik
- ✓ Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish



ASOSIY ILMIY XULOSA



Sotsiologik so'rovnoma tajriba-sinov ishlarida empirik ma'lumotlarni yig'ishning muhim ilmiy metodi hisoblanadi.



Reprezentativ tanlanma, ilmiy etika, pilot tadqiqot va statistik tahlil sifatli ilmiy xulosalarning muhim shartlari hisoblanadi.



So'rovnomani metodologik jihatdan to'g'ri ishlab chiqish tadqiqotning validligi, ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.



Zamonaviy tadqiqotchi so'rovnomani oddiy anketa emas, balki ilmiy o'chov instrumenti sifatida qo'llashi zarur.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

<https://raqamlitalim.trm.uz/yosholim>

